

“QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI TARIXI VA BUGUNI”

“ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КОКАНДСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА”

“HISTORY AND PRESENT STATUS OF KOKAND STATE UNIVERSITY”

Sirojiddinova Ma‘muraxon Sharofiddinova

Qo‘qon DU Gumanitar fanlar va tillar fakulteti tyutori

Turg‘unova Madinabonu Ilhomjon qizi

Qo‘qon DU Gumanitar fanlar va tillar fakulteti talabasi

+99890-308-75-27

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qo‘qon davlat universitetining tashkillanish tarixi, uning rivojlanish davrlari va bugungi kundagi ilmiy-ta‘limiy va ma‘naviy salohiyati yoritilgan. Shuningdek, universitetning Yangi O‘zbekiston sharoitidagi o‘rni, strategik maqsadlari hamda ilmiy jarayonga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon davlat universiteti, tarix, ta‘lim, islohotlar, Yangi O‘zbekiston, xalqaro hamkorlik, ilmiy salohiyat, yoshlar*

Аннотация. *В данной статье освещается история формирования Кокандского государственного университета, этапы его развития, а также современный научно-образовательный и духовный потенциал. Кроме того, анализируется роль университета в условиях Нового Узбекистана, его стратегические цели и вклад в научный процесс.*

Ключевые слова: *Кокандский государственный университет, история, образование, реформы, Новый Узбекистан, международное сотрудничество, научный потенциал, молодежь.*

Annotation. *This article highlights the history of the establishment of Kokand State University, its stages of development, and its current scientific, educational, and spiritual potential. It also analyzes the university’s role within the context of New Uzbekistan, its strategic goals, and its contribution to the scientific process.*

Keywords: *Kokand State University, history, education, reforms, New Uzbekistan, international cooperation, scientific potential, youth.*

KIRISH: *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar orasida oliy ta‘lim tizimi alohida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof*

etilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta‘limni modernizatsiya qilish, ta‘lim sifati va mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish, yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish borasida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Oliy ta‘lim muassasalarini erkinlashtirish, ularning akademik va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, chet ellik professor-o‘qituvchilarni jalb etish, xalqaro dasturlar va qo‘shma ta‘lim yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish bugungi kunning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Bunday sharoitda respublika oliy ta‘lim dargohlari qatorida Qo‘qon davlat universiteti ham o‘zining tarixiy tajribasi, ilmiy salohiyati va ma‘naviy-ma‘rifiy maktabi bilan ajralib turadi. Universitetning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda bugungi kundagi faoliyati Yangi O‘zbekiston ta‘lim siyosati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mazkur dargohda amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish, yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash universitet taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi” [1] – degan fikrlari bugungi islohotlar mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Ushbu so‘zlar mamlakat taraqqiyotining bosh omili sifatida inson kapitaliga tayanish, yosh avlodning ma‘naviy yetukligi va ilmiy salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta‘lim tizimini takomillashtirish, oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining muhim nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

ASOSIY QISM

Qo‘qon davlat universitetining bugungi nufuzli ta‘lim maskaniga aylanishi uning uzoq, sermazmun va boy tarixining mantiqiy davomidir. Bu dargohning shakllanish jarayoniga nazar tashlaganda, avvalo, XX asr boshlarida Qo‘qon shahri ilm-fan va ma‘rifat markazi sifatida keskin o‘sib borayotgan bir davrni ko‘z oldimizga keltirish mumkin. Shu davrda pedagogik mutaxassislar tayyorlash ehtiyoji yuzaga kelgan bo‘lib, 1931-yilda pedagogika oliy bilim yurti sifatida faoliyat boshlagan muassasa o‘z faoliyatini cheklangan resurslar bilan boshlagan [2]. Biroq, qisqa vaqt ichida u nafaqat o‘qituvchilar, balki jamiyat uchun ma‘naviy-ma‘rifiy yetakchilarni tarbiyalaydigan maskanga aylanib, shahar va mintaqada ta‘limning muhim markaziga aylangan.

Yillar davomida universitet turli nom va maqomlar bilan faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, har bir davrning murakkab sinovlaridan o‘tib, o‘zini yangicha mazmun va tajriba bilan boyitib bordi. O‘tmishdan kelayotgan ilmiy an‘analarga tayangan holda, dargoh pedagogik bilimlarni chuqurlashtirish, milliy ma‘rifat poydevorini mustahkamlash va yurt taraqqiyoti uchun fidoyi kadrlar yetishtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Shu tariqa, universitetning tarixiy taraqqiyotida ilm, ma‘rifat, kasbiy yetuklik va jamiyatga xizmat qilish g‘oyalari doimo yetakchi o‘rinda bo‘lgan.

Mustaqillik yillariga kelib, O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida boshlangan tub yangilanishlar natijasida universitetning faoliyati ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Ta‘lim sifati, ilmiy izlanishlar, metodik yondashuvlar va moddiy-texnik baza zamon talablariga mos ravishda yangilandi. Shu davrda, universitetda raqobatbardosh, zamonaviy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan yosh kadrlar yetishtirishga ehtiyoj ortdi. Natijada, universitet oldiga qo‘yilgan maqsadlar kengayib, unga yangi imkoniyatlar, xalqaro maydonga chiqish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun puxta zamin yaratildi.

Bugungi kunda Qo‘qon davlat universiteti 18 000 dan ortiq talabaga ta‘lim beradi. Ularning kunduzgi va sirtqi shakllar bo‘yicha tahsil olayotganlari universitetning ta‘lim maydonini kengaytirganini ko‘rsatadi. Universitetda 7 fakultet faoliyat yuritadi, ularda jami 200 dan ortiq professor va ilmiy xodimlar ishlaydi. Shu jumladan, 22 nafari yetakchi professor, 40 nafari PhD va 25 nafari dotsent sifatida faoliyat yuritadi [3]. Bu universitetda ta‘lim sifati va ilmiy izlanishlarning yuqori darajada amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Ta‘lim jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron ta‘lim platformalari va raqamli o‘quv resurslari bilan boyitilgan. Bu talabalar bilimni chuqur, tizimli va keng qamrovli shakllantirishga xizmat qiladi. Universitetda ilmiy izlanishlar sifati oshib, yosh tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari kengayib, qo‘shma loyihalar va ilmiy dasturlar yo‘lga qo‘yildi, professor-o‘qituvchilar esa doimiy ravishda malaka oshirishda ishtirok etib, tajriba almashmoqda.

Universitet bugungi kunda nafaqat ta‘lim beruvchi maskan, balki ilm-fan, ma‘naviyat va innovatsiyaning muhim markazi sifatida tanilgan. Talabalarda milliy qadriyatlarga hurmat, zamonaviy dunyoqarash, yangilikka intilish, mas‘uliyat va bunyodkorlik kabi fazilatlarni shakllantirish universitetning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga, yangi binolar, laboratoriyalar va talabalar yotoqxonalari bilan ta‘minlangan muassasa har yili minglab yoshlarning taqdirini yoritishga xizmat qilmoqda.

Shu ma‘noda, Qo‘qon davlat universiteti o‘zining tarixiy ildizlari, sermahsul yillari, o‘shish bosqichlari va bugungi taraqqiyoti bilan Yangi O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimining muhim tayanch ustunlaridan biriga aylanganini bemalol aytish mumkin. U ilgari boshlangan ilmiy-ma‘rifiy an‘analarni davom ettiribgina qolmay, zamonaviy taraqqiyot jarayonlarining

faol ishtirokchisiga aylanib, yurtimizning ertangi kunini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Qo‘qon davlat universiteti o‘z tarixida nafaqat ta‘lim, balki ilmiy maktab sifatida ham keng e‘tibor qozongan. Universitetning ilmiy salohiyati, avvalo, bu yerda faoliyat yuritgan olimlar, professorlar va dotsentlarning fidoyiligi bilan bog‘liq. Ular nafaqat o‘quv jarayonini sifatli tashkil etgan, balki yosh olimlarni ilmiy izlanishga, tadqiqotlarga va xalqaro loyihalarda ishtirok etishga tayyorlashga katta hissa qo‘shgan.

O‘tgan yillarda universitetda tarix, filologiya, matematika, tabiiy fanlar va pedagogika yo‘nalishlarida faoliyat yuritgan yetakchi olimlar universitet ilmiy maktabini shakllantirdi. Ularning ilmiy tadqiqotlari va nashrlari nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo hududida tan olingan. Ba‘zi professorlar xalqaro konferensiyalarda ma‘ruzalar qilgan, xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar nashr etgan, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali universitetning ilmiy salohiyatini oshirgan.

Universitetning olimlari orasida tarix, tilshunoslik, informatika va tabiiy fanlar sohasida yetakchi nomlar mavjud bo‘lib, ular universitetning xalqaro maydonda tan olinishiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, ko‘plab olimlar yoshlar uchun ilmiy seminarlar va treninglar tashkil etib, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o‘rgatadi va talabalarni o‘z mustaqil tadqiqotlarini olib borishga tayyorlaydi.

Qo‘qon davlat universitetidagi olimlar va professorlar jamiyati universitetning ilmiy va pedagogik rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular universitetning nafaqat O‘zbekiston, balki mintaqa ta‘lim maydonida obro‘li markaz sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Qo‘qon davlat universiteti o‘z faoliyatida xalqaro hamkorlikka alohida e‘tibor beradi. Universitet ko‘plab xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qiladi, qo‘shma ilmiy loyihalar, seminarlar va konferensiyalar tashkil etadi. Shu orqali professor-o‘qituvchilar va talabalar zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan tanishib, tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Universitetning xalqaro hamkorlik faoliyati nafaqat ilmiy salohiyatni oshirish, balki Yangi O‘zbekiston ta‘lim tizimining ochiqlik va integratsiya tamoyillarini amalga oshirishga ham xizmat qiladi. Bu esa talabalar uchun chet el universitetlarida qisqa muddatli malaka oshirish va ko‘p tilli ilmiy resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo‘qon davlat universiteti o‘zining tarixi, ilmiy salohiyati va zamonaviy yutuqlari bilan Yangi O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimining muhim tayanch ustunlaridan biridir. Universitet nafaqat talabalarga sifatli ta‘lim beradi, balki ilm-fan va innovatsiya markazi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, universitetning xalqaro hamkorliklarini kengaytirish, ilmiy laboratoriyalarni zamonaviylashtirish va yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash orqali uning salohiyatini yanada oshirish mumkin. Bu esa nafaqat universitet, balki Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 30.05.2023-yilgi O‘zLiDePdan O‘zbekiston prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev o‘z saylovoldi dasturi ma’ruza nutqidan.
2. <https://www.kokandsu.uz/>
3. “Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” — universitetning rasmiy ilmiy jurnali.
https://kokandsu.uz/download_scientific_journal
4. Universitetning professor – o‘qituvchilaridan yozib olingan ma’lumotlar.